

INGLIZ-O'ZBEK TIBBIYOT KONFERENSIYALARIDA SINXRON TARJIMADA JARROHLIK TERMINLARINING SEMANTIK MOSLASHUVI

Turgunboyeva Zarnigor Ilhomjon qizi

USWLU 1-kurs magistr talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqola ingliz-o'zbek tillaridagi tibbiyotga oid bo'lgan konferensiyalarda jarrohlik terminlarining sinxron tarjimada semantik moslashuviga bag'ishlanadi. Jarrohlik terminlari asosan murakkab, ko'p ma'noli va kontekstda o'zgarishi bilan tarjimonga biroz qiyinchilik tug'diradi. Sinxron tarjimada vaqt bosimi, nutqning tezligi, aniqligi va turli xil maxsus terminlarning ko'pligi tarjimonga yanada katta mas'uliyat yuklaydi va shu terminlarni semantik jihatdan to'g'ri shaklda o'zbek tiliga moslashtirishi zarur bo'ladi. Ushbu tadqiqotda jarrohlik terminlarining turli kontekstlarda ma'no o'zgarishi, ko'chishi, kengayishi, torayishi va funksional moslashuvi turli xil misollar orqali tahlil qilinadi. Bundan tashqari, sinxron tarjima jarayonida semantik tahlilning o'rni va turli xildagi strategiyalar taklif qilinadi.

Kalit so'zlar: sinxron tarjima, jarrohlik terminologiyasi, semantik moslashuv, ma'no kengayishi, ma'no torayishi, ma'no ko'chishi.

Annotation : This article is devoted to the semantic adaptation of surgical terms in simultaneous interpretation at medical conferences conducted in English and Uzbek. Surgical terminology is generally complex, polysemous, and context-dependent, which creates certain difficulties for interpreters. In simultaneous interpretation, time pressure, speech rate, accuracy requirements, and the abundance of specialized terms place significant responsibility on the interpreter, making it essential to adapt these terms into Uzbek in a semantically appropriate manner. The study analyzes semantic changes in surgical terms across various contexts, including meaning shift, expansion, narrowing, and functional adaptation, using a range of

examples. In addition, the role of semantic analysis in the process of simultaneous interpretation is examined, and various interpretation strategies are proposed.

Keywords: simultaneous interpretation, surgical terminology, semantic adaptation, meaning expansion, meaning narrowing, semantic shift.

Аннотация: Данная статья посвящена проблеме семантической адаптации хирургических терминов в синхронном переводе на медицинских конференциях, проводимых на английском и узбекском языках. Хирургическая терминология, как правило, отличается сложностью, многозначностью и зависимостью от контекста, что создает определённые трудности для переводчика. В условиях синхронного перевода временное давление, высокая скорость речи, требования к точности и большое количество специализированных терминов возлагают на переводчика повышенную ответственность и требуют семантически корректной адаптации терминов на узбекский язык. В исследовании анализируются изменения значения хирургических терминов в различных контекстах, включая семантическое смещение, расширение и сужение значения, а также их функциональная адаптация на основе конкретных примеров. Кроме того, рассматривается роль семантического анализа в процессе синхронного перевода и предлагаются различные переводческие стратегии.

Ключевые слова: синхронный перевод, хирургическая терминология, семантическая адаптация, расширение значения, сужение значения, семантическое смещение.

Kirish

Bugungi kunda tibbiyot sohasining rivojlanishi natijasida turli xil shu so'ragan oid bo'lgan ilmiy anjuman va konferensiyalar ko'proq o'tkazilishi natijasida o'zbek-ingliz sinxron tarjimonlariga bo'lgan ehtiyoj sezilarli darajada oshdi. Tibbiyot ayniqsa jarrohlik terminologiyasi alohida semantik maydan bo'lib, u boshqa fanlardagi

yangiliklar va o'zgarishlar bilan bevosita bog'liq. Tibbiyot sohasini turli xildagi terminalarsiz tasavvur qilish qiyin va ingliz tilidagi bu terminlarni boshqa tillaridagi yangi so'zlar olish bilan emas, balki tarjimon o'zbek tilining ichki imkoniyatlaridan foydalangan holda tinglovchiga yetkazib berish kerak.

Bundan tashqari, jarrohlik terminlari ko'p ma'noli va eponimga boyligi bilan alohida ajralib turadi. Masalan, laparoscopic, Whipple procedure, robot-assisted mitral valve repair kabi terminlarda shunchaki jarrohlik amaliyotida qo'llaniladigan so'zlar emas, balki anatomik, texnik va tarixiy ma'lumotlar mavzud bo'lib, ularni o'zbek tiliga to'g'ridan to'g'ri ko'chish oson emas va bu ancha vaqt talab qiladi.

Bunga qo'shimcha qilib, sinxron tarjimada tarjimon vaqt bosimi bilan birga jarrohlik terminlarining mohiyatini saqlab qolishni va turli xil texnik nosozliklarni ham hisobga olishi zarur. Ingliz va o'zbek tilidagi so'zlarning strukturasi turli xilligi sabab ko'plab jarrohlik terminlarining o'zbek tilidagi tayyor ekvivalentini mavjud emas. Bunday holatlarda atamalarni semantik moslashuvi, ya'ni terminning mazmunini yo'qotmasdan uni muqobil variantini yaratish kerak bo'ladi.

Materiallar va metodlar. So'nggi yillarda ko'plab tadqiqotchi olimlar tibbiyot terminologiyasidagi natijalari birlashtirib, umumlashtishga harakat qilishadi. Xorijiy tadqiqotchilar orasida S. Vlahov, S. Florin, L. S. Barkhudarov, Kochetova, A. S. Adrianova, R. K. Minyar-Beloruhev, Juan C. Sager, Eugene Nida va Peter Newmark kabi olimlar tibbiy va jarrohlik terminlarining tarjima nazariyasi hamda ekvivalentligini chuqur o'rgangan. O'zbekistonlik tadqiqotchilar orasida esa D. Yo'ldosheva, R. Rasulov, O. Ishmuhamedov va N. Normurodova tibbiy terminologiyaning o'zbek tilidagi shakllanishi, tarjima jarayonidagi muammolar va jarrohlik atamalarining ekvivalentlarini o'rganish orqali ushbu yo'nalishga katta hissa qo'shgan.

Tibbiy atamalarining leksik va semantik tuzilishi tibbiyot sohasida tushunish va muloqot qilishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tibbiyot terminologiyasi aniq ma'nolarni yetkazish uchun maxsus qoidalar va naqshlar yordamida tuzilgan va bu atamalar qanday shakllanayotganini tushunish muhimdir [1].

Tibbiy va jarrohlik terminlarining semantik xususiyatlari.

1. O'ziga xoslik: Tibbiy atamalar ko'pincha o'z ma'nosida juda aniq va aniq bo'lib, muayyan kasalliklar, holatlar, davolash usullari yoki anatomik tuzilmalarga ishora qiladi.
2. Texnika: Tibbiy atamalar odatda texnik xususiyatga ega bo'lib, ko'pincha aholi uchun tanish bo'lmagan maxsus lug'at va terminologiyadan foydalanadi.
3. Aniqlik: Tibbiy atamalar o'z ma'nosida aniq bo'lib, ko'pincha muayyan tibbiy tushuncha yoki holat haqida aniq ma'lumot beradi.
4. Murakkablik: Tibbiy atamalar murakkab bo'lishi mumkin, ular ma'nosini etkazish uchun prefikslar, qo'shimchalar va ildiz so'zlar kabi bir nechta komponentlarni o'z ichiga oladi.
5. Standartlashtirish: Tibbiy atamalar ko'pincha standartlashtiriladi va sog'liqni saqlash sohasi mutaxassislari o'rtasida aniq muloqot va tushunishni ta'minlash uchun tibbiyot sohasida izchil qo'llaniladi.
6. Ilmiy asos: Tibbiyot atamaları anatomiya, fiziologiya, patologiya va tibbiy muolajalar haqidagi hozirgi tushunchalarni aks ettiruvchi ilmiy tamoyillar va bilimlarga asoslanadi.
7. Aniqlik: Tibbiy atamalar aniq va aniq bo'lishi uchun ishlab chiqilgan bo'lib, sog'liqni saqlash xodimlari o'rtasida to'g'ri muloqot va tushunish imkonini beradi.
8. Domenga xoslik: Tibbiy atamalar tibbiyot va sog'liqni saqlash sohasiga xos bo'lib, ko'pincha boshqa sohalarda yoki fanlarda ishlatilmaydi.
9. Morfologik murakkablik: Tibbiyot terminlari ko'pincha murakkab morfologik tuzilmalarga ega bo'lib, ularning o'ziga xos ma'nosini ifodalovchi affikslar, ildizlar va birikma shakllari mavjud.
10. Etimologik ildizlar: Ko'pgina tibbiy atamalarning kelib chiqishi lotin, yunon yoki boshqa klassik tillarda bo'lib, tibbiyot terminologiyasining tarixiy rivojlanishini aks ettiradi va ularning ma'nosi haqida tushuncha beradi.

11. Tizimli tashkil etish: Tibbiyot atamaları ko'pincha ularning ma'nosini shakllantirish va izohlash uchun muayyan naqsh va qoidalarga rioya qilgan holda tizimli ravishda tuziladi.

12. Ixtisoslashgan foydalanish: Tibbiy atamalar tibbiy bilim va amaliyotning xilmaxilligini aks ettiruvchi turli tibbiy mutaxassisliklar yoki kichik sohalarda maxsus foydalanishga ega bo'lishi mumkin.

13. Rivojlanayotgan terminologiya: Tibbiyot terminologiyasi tibbiyot fanlari, texnologiyalari va tushunchalaridagi yutuqlarni aks ettirish uchun doimiy ravishda rivojlanib boradi, bu esa yangi atamalarning yaratilishiga va mavjudlariga o'zgartirishlar kiritilishiga olib keladi.

14. Xalqaro standartlashtirish: Ko'pgina tibbiy atamalar xalqaro miqyosdastandardlashtirilgan bo'lib, turli mamlakatlar va sog'liqni saqlash tizimlarida izchil muloqot va tushunish imkonini beradi.

15. Terminologiya resurslari: Tibbiyot mutaxassislari va talabalari foydalanishi uchun tibbiy terminologiyani hujjatlashtirish va tushuntirishga bag'ishlangan tibbiy lug'atlar va ma'lumotlar bazalari kabi maxsus resurslar mavjud. [2].

Jarrohlik terminlarining sinxron tarjima qilishda ba'zi atamalarni aniq tarjima qilish talab qilinadi. Chunki ularning etimologik kelib chiqishi bilan birgalikda xalqaro standartlarga ham mos kelishi kerak. Shu bilan birga, tarjimon tinglovchiga nutqni tushunarli va aniq qilib, tinglovchining madaniyati va lingvistik farqlarni ham hisobga olgan holda tarjimani yetkazib berish zarur. Chunki turli tillar va madaniyatlarda terminlarining ma'nosi turlicha bo'lib o'zgarishi mumkin va bunday holatlarda tarjimon asosan atamalarning izchilligini saqlab qolishga harakat qilishi zarur. Bundan tashqari, nafaqat jarrohlik terminlarining balki barcha tibbiy atamalarning tarkibiy qismlar turli tillarda turlicha bo'lishi mumkin. Jarrohlik terminlarining va tibbiy atamalarning semantik xilma-xil tarkibi uni turli xil ma'nolarga ham sabab bo'ladi.

- Morfologiya: Tibbiyot terminlarining morfologiyasi so'zlarning ichki tuzilishi bilan shug'ullanadi. Bu prefikslar, ildizlar va qo'shimchalarning mazmunli tibbiy atamalarni yaratish uchun qanday qo'shilishini tushunishni o'z ichiga oladi.

Masalan, “dermatologiya” atamasi “derm-” (teri) o‘zagi va “-ology” (o‘rganish) qo‘shimchasidan iborat bo‘lib, uning terini o‘rganishga tegishli ekanligini ko‘rsatadi.

- So‘z yasalishi: Tibbiy atamalar ko‘pincha yunon yoki lotin ildizlaridan olingan bo‘lib, so‘z yasash uchun maxsus naqshlarga amal qiladi. Masalan, “gastroenterologiya” atamasi yunoncha “gastro” (oshqozon) va “enteron” (ichak) so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, “-ologiya” qo‘shimchasi bilan u oshqozon va ichaklarni o‘rganuvchi fan ekanligini bildiradi.

- Kompozitsiya ma’nosi: Tibbiy atamalarning kompozitsion ma’nosi so‘zning alohida qismlarining muayyan tibbiy tushunchani yetkazish uchun qanday birlashishini anglatadi. Komponentlarni tushunish sog‘liqni saqlash xodimlariga havola qilinayotgan shartlar, protseduralar yoki anatomik tuzilmalarni sharhlash imkonini beradi. Masalan, "bronxospazm""bronxo-" (bronxlar bilan bog‘liq) va "-spazm" (anormal qisqarish) dan iborat bo‘lib, bronxialnaychalarning g‘ayritabiiy qisqarishini ko‘rsatadi.[1]

Bundan tashqari, tarjimon tinglayotgan auditoriya jarrohlikning qaysi yo‘nalishi ekanligini aniqlab olishi kerak. Chunki, tinglovchilar terminlar haqiqatdan ham kontekstga bog‘liqligi yoki yo‘qligini aniqlab beradi. Masalan, Embolus–tromb, Biliary–safro, Concomitant– qo‘sh, birgalikda, Hydatid–kist, Cutaneous–teri, Axiliary– qo‘ltiq osti, Cirrhosis–jigar sirrozi, Maxillary–yuqori jag‘, Peritoneal (the cavity) – qarindosh bo‘shlig‘i, Sebaceous–yog‘. Bu terminlar tinglovchilarning yo‘nalishidan kelib chiqqan holda tarjima qilingan [2, p. 215].

Shuningdek, jarrohlik terminlarida qo‘llaniladigan old va orqa qo‘shimchalar ham atamalarning ma’nosini o‘zgarishida muhim ahamiyatga ega. Chunki har bir old va orqa qo‘shimcha terminlarda turli ma’no bildirishi mumkin. Masalan,

Old qo‘shimcha: pre-old, oldin -preoperative- operatsiyadan oldingi
post-keyin, so‘ng- postoperative–operatsiyadan keyingi
peri-atrof, o‘rab turuvchi-pericardium–yurak atrofidagi parda
intra-ichki ichida-intraoperative–operatsiya vaqtida
extra-tashqi, tashqarida-extracorporeal–tanadan tashqarida

sub-osti, pastda-subcutaneous–teri osti

super-/supra-usti, yuqorida-suprapubic–qovuq usti.

Orqa qo‘shimcha: -ectomy-kesib olish, olib tashlash-appendectomy–
appendiksni olib tashlash

-otomy-kesish, ochish-laparotomy–qorin bo‘shlig‘ini ochish

-ostomy- sun‘iy teshik chiqarish yo‘li-tracheostomy–traxeyaga sun‘iy teshik

-plasty-tiklash, shakl berish-rhinoplasty–burun plastikasi

-scopy-ko‘rish tekshiruv-laparoscopy–laparoskopiya

-graphy –yozish, tasvirlash-angiography–tomir tasviri

-itis-yallig‘lanish-appendicitis–appendiks yallig‘lanishi

-oma-o‘sma, shish-carcinoma–rako‘smalari.

Xulosa

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, tibbiyot sohasining jarrohlik terminologiyasidagi atamalarning semantik tuzilishi shu sohada qo‘llaniladigan so‘zlarning ma‘nolari va terminlarning tuzilishiga uzviy bog‘liqdir. Tarjimon jarrohlik terminlarining nafaqat o‘zini balki shu sohaning o‘zidan ham xabardor bo‘lishi lozim. Shuningdek, nafaqat jarrohlik balki tibbiyot sohasi terminologiyasi tarjimonlardan ham maqsadi tilni mukammal bilish, shuningdek, tibbiy tushunchalarni, davlat madaniyati va terminologiyalar kelib chiqish tarixini ham chuqur bilish kerak. Bu tibbiyot sohasida aniq va tushunarli tarjimalar vujudga kelishing ta‘minlaydi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Lejchik V.M. terminology: object, structure. Moscow, 2012.
2. Швейцер А. Д. Теория перевода: статус, проблемы, аспекты. — Москва : Наука, 1988. — 215 с.
3. Tursunov E.V. Features of translating terms of surgery// *International Journal of Business, Law, and Education*. —2021.—No.2—p. 39—42.
4. Nurmatova S.B. Tibbiyot sohasi terminlari tarjimasining leksik-semantik xususiyatlari// *Modern science and research*. —2024. — No.3—p. 179-184.
5. <https://openai.com/gpt-4> Lexical-semantic structure of medical terms.